

To'xtasinov Rashid

Sherqulov Jobir

Denov tadbirkorlik va pedagogika institut

Pedagogika fakulteti,

Jismoniy madaniyat 1-bosqich talabasi

Annostatsiya: *Beruniy falsafiy qarashlari, uning ilm-fan va madaniyatga qo'shgan hissasi bilan bir qatorda, insoniyatning tafakkur tarixi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Beruniyning falsafiy g'oyalari, ularning asosiy yo'nalishlari, va zamonaviy falsafa bilan aloqalari muhokama qilinadi. Beruniy, o'z asarlarida tabiat, inson va uning o'rni haqida chuqur o'y-fikrlarga ega bo'lib, bu fikrlar orqali insoniyatning bilim va ma'naviyatini yuksaltirishga intildi.*

Kalit so'zlar: *kitob ahllari, Falsafa, Hindiston, evolyutsion nazariya, hujayra nazariyasi.*

Birinchi ming yillikning so'nggida (973 yil, 4 sentyabr) tavallud topgan ulug' bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy ham falsafa fanini rivojlantirish ishiga ulkan hissa qo'shdi. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan qomusiy kitobini to'la ma'noda insoniyat tarixining o'tgan 5 ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bag'ishlangan mumtoz qomusiy asar, deb baholash mumkin. Mazkur kitobda ulug' mutafakkir asar yozilishi jarayonida olib borgan ilmiy-falsafiy tadqiqotlari, qo'llagan usullari xususida so'z yuritib shunday yozgan: «Mazkur asarni yozish asnosida o'zimga ishonch hosil qildim-ki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yo'li bilan haqiqiy malumotlarga ega bo'lish mumkin emas. Bunga faqat «kitob ahllari» va turli din arboblari, shu (e'tiqodlarga) amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalari ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan belgilanadi. So'ngra ularning isbot uchun keltirgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi». Falsafada olamni bilish yo'llari, usullari ishlab chiqilgan va bu metodologiya (usullar haqidagi ta'limot) da o'z ifodasini topgan. Ijtimoiy falsafa

inson va jamiyatni o'rganish yo'llari, usullari haqida bahs yuritadi. Abu Rayhon Beruniy dunyoning manzarasi evolyutsion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi. «Olamni idora qiluvchi manba - “tuzilish va buzilish” dan iborat ziddiyatdir, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi». Ayni chog'da Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyat va qaramaqarshiliklar emas, balki turli ijtimoiy darajalardagi murosa va konsensus ekanligini uqtiradi. Al -Beruniy falsafasi insoniyat tafakkurining yuksak cho'qqilaridan biridir. U o'z asarlarida ilm-fan, tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur o'rganib, o'z zamonasi uchun o'ziga xos yondashuvni taklif etgan.

Beruniy, o'zining noyob fikrlash uslubi va metodologiyasi bilan, nafaqat o'z davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham ta'sirchan bo'lib qolgan. Beruniy tabiatni murakkab tizim sifatida ko'radi, unda har bir element bir-biriga bog'langan. U insonni tabiatning ajralmas qismi sifatida tushunadi. Unga ko'ra, inson o'z atrofidagi tabiiy muhitni o'rganib, uni bilishi va tushunishi orqali o'zining maqsadlariga erishishi mumkin. Beruniyning bu fikrlari, ayniqsa, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalalarida juda dolzarbdir. Beruniyning bilimga bo'lgan munosabati juda chuqur. U bilimni insonning asosiy maqsadi deb hisoblaydi va bu maqsadga erishish uchun ilmiy uslublarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. U nazariyalarni faqat nazariy asosda emas, balki tajribalar orqali ham sinovdan o'tkazishni muhim deb biladi. Bu yondashuv, aslida, zamonaviy ilmiy metodologiyaning asosiy tamoyillaridan biridir.

Beruniyning metodologiyasi tajriba va kuzatishga asoslangan. U ilmiy bilimlarni shakllantirishda empirik ma'lumotlarni to'plashni muhim deb hisoblaydi. Uning "Qonun al-Mas'udi" asarida astronomiya sohasidagi kashfiyotlar va kuzatishlar batafsil bayon etilgan. Bu asar, nafaqat o'z zamonasi, balki kelajak avlodlar uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qilgan. Beruniy, shuningdek, etik masalalarga ham katta e'tibor qaratadi. U insonning maqsadi va axloqiy qadriyatlar haqida chuqur o'ylaydi. Adolat, haqiqat va insoniylik kabi qadriyatlar uning etik fikrlashining asosini tashkil etadi. U insonlarni o'z-o'zini tarbiyalashga, ruhiy yuksalishga chaqiradi va bu jarayonda ilmiy bilimlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Beruniy din va falsafani bir-biriga yaqin deb hisoblaydi.

U dinning ilm-fan bilan qarama-qarshi bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. Aksincha, din va ilm bir-birini to'ldirishi kerak. Bu yondashuv, zamonaviy dunyoda ham muhim ahamiyatga ega, chunki bu ikki soha o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatlash zarurati mavjud. Beruniy kishilar hayotidagi yomonlikni qoralaydi. Uning fikricha, bu illatni yo'qotishning asosiy yo'li uning ildizlarini topish va kesib tashlashdir.

Yomonlikning shaxobchalari ko'p, ammo ularning asosi uch narsa: ta'ma, g'azab va ilmsizlikdir. Agarda bu asoslar qirqib tashlansa, shaxobchalar quriydi. Bu asoslarning negizi esa ishtaxa va g'azabdir. Ishtaha insonga eng kuchli va eng halokatli dushman bo'lib, insonni ovqatlarni tanovul qilish lazzati va o'ch olish zavqi bilan aldaydi. Olimning tushuntirishicha, bu illatlar, ranj va gunohga olib keladi. Ularning ta'fsiriga berilib ketgan kishi insonlik qiyofasini yo'qotadi. Beruniy bunday kishilarni yirtqich va to'rt oyoqli hayvon, hattoki shayton va iblis deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy o'zining qator falsafiy asarlarida psixologik va pedagogik qarashlarini bayon qiladi. Bular inson shaxsining shakllanishi, ahloqiy kamoloti, aql-idroki, tafakkuri haqida fikrlaridir. Beruniyning «qadimgi avlodlar obidalari» asarida ba'zi odamlar shaxsining shakllanishida ularning xulq – atvorida mavjud bo'lgan ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarning shaxs taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida to'xtalib o'tadi. Bu illatlarga qarama-qarshi oqil odamlar haqida o'z fikrini bayon qiladi.

Beruniyning fikricha oqil odamlarning taraqqiyoti va uning ruhiyatining rivojlanishi hech bir to'siqlarsiz ijobiy rivojlanishga ega bo'ladi deb tushuniladi. Beruniy psixologiya sohasida aniq bir asar yozmagan bo'lsa ham, Farobiy ta'limoti ta'sirida inson shaxsining kamoloti, uning aql-idroki, ruhiy taraqqiyoti haqidagi o'zining psixologik va pedagogik qarashlarini hamma asarlarda to'liq bayon qiladi. Masalan: «Mineralogiya», «Hindiston», hislar bilan seziladigan va aql bilan bilinadigan bir qator kitobning tarjimai-degan kitob va risolalarida o'zining ruh haqidagi qarashlari, ruhiyatning ba'zi muhim masalalarini bilish va tafakkur jarayonlari haqida juda ko'p, g'oyat qimmatli fikr-mulohazalar mavjud. Beruniy olamni ob'ektiv reallik, inson irodasidan tashqarida mustaqil ravishda

mavjud bo'lgan borliq sifatida qaraydi. Beruniy kishi ongi. Tafakkuri va ruhiyatini moddiy jismdan keltirib chiqargan holda tasavvur etadi. Beruniy Abu Ali ibn Sino bilan bo'lgan munozaralarida barcha narsalarning asosida 5 ta element, ya'ni suv, olov, havo er, bo'shliq yotishini hamda dunyoni bilish jarayonida bilimlarimizning manbaini sezgi a'zolarimiz va ular orqali qabul qilgan hissiy bilmimiz tashkil etadi deb ta'kidlangan. U «agar sezgi a'zolarimiz bo'lmaganda olam tasavvurga ega bo'lmasdik. Umuman inson narsa va jismlarning rangini bilmagan bo'lardik» deydi. Bunda Beruniy sezgi organlar fasliyatiga baho berib materialistik pozitsiyada turganligini ko'ramiz. Olimning inson turmushiga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to'g'risidagi tahmini uning falsafiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Beruniy boshqa dunyo haqida fikr yuritarkan, boshqa moddiy dunyo ehtimol bizning dunyomiz singari tabiiy xususiyatga ega bo'lib, «harakat yo'nalishlari esa, bizning dunyomizdagi harakat yo'nalishlaridan farq qiladi», deydi. Buyuk tabiatshunos Beruniy o'zining salafлари, xususan, Ahmad Farg'oniy va Muhammad Xorazmiy ishlab chiqqan bilishning ilmiy usulini rivojlantirib, yanada chuqurlashtirdi. Uning aytishicha, «Kuzatishning ko'pligi ko'rilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi».

Beruniy o'zining o'gitida: «Biliming shundayki, u yalang'och bo'lsang ham o'zingda qoladi, uni hammomga kirganingdagi xo'llik ham yo'qota olmaydi», – deydi. Beruniy inson xotirasini «Allohning tuhfası», deb hisoblaydi. U «tirishqoqlik va ko'p shug'ullanish bilan ham xotirani mustahkamlash mumkin», deydi. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqda tajribaga tayanuvchi fanlarning asoschilaridan bo'lgan Beruniy tabiat hodisalarini bilishdagi nazariy-mantiqiy xulosa, qiyoslashning ahamiyatini benihoya katta ekanligini uqtirib o'tadi. Beruniy tarixiy hodisa va voqealar haqiqatini bilishga taalluqli hamma masalalarni har taraflama o'rganish zarurligini ko'rsatadi va bu bilan noto'g'ri yo'lga tushib qolishdan ehtiyot bo'lishga chaqiradi. U shunday yozadi: «Xabar ko'z bilan ko'rgandek bo'lmaydi, degan kishining so'zi juda to'g'ridir. Chunki ko'rish ko'ringan narsaning o'zi bor paytida va o'z joyida turganida qarovchi ko'zining uni uchratishdan iboratdir. Xabarga yolg'on-yashiqlar qo'shilmaganda,

u ko'rishga nisbatan ortiqroq o'rinda turgan bo'lar edi. Chunki ko'rish va qarash shu payt, shu on bilan cheklanadi. Xabar esa, narsaning ko'ringan payti va vaqtdan ilgari o'tgan va keyin keladigan hollaridan darak beradi; ana shuning uchun xabar mavjud narsalardan ham, kelajak narsalardan ham darak beraveradi. Yozish xabar turlarining biri bo'lib, uni boshqa turlardan ko'ra, afzalroq hisoblash mumkin; qalamning mangu yodgorliklari bo'lmaganda, xalqlarning tarixini qanday bilar edik?! So'ngra, odatda bo'lgan hol haqida berilgan xabar bir xil emas, balki (farqsiz) rost va yolg'on bo'lishi mumkin». Beruniy yolg'on xabarlarining muayyan va umumiy ildizlarini ochib tashlaydi. U bularni ma'lum guruh kishilarining manfaatlarini qarama-qarshiligida ko'radi. Uningcha, chinakam jasorat, qahramonlik so'zdami yo amaldami, har ikki holatda ham yolg'onga qarshi kurashda o'limni ham pisand qilmaslikda namoyon bo'ladi.

«Yolg'onchilikdan chetlanib, rostgo'ylikka yopishgan kishini boshqa odam uyoqda tursin, yolg'onchining o'zi ham sevib maqtaydi. Axir, o'z zararingizga bo'lsa ham, rost gapiring deyilganku», deb yozadi u. Kuzatish, ko'rish, tajribalar qilish, mantiqiy umumlashmalar chiqarish, ma'lumotlarni to'plash, xalq og'zaki ijodi, yozma yodgorliklarni o'rganish, barcha xabar, manbalarga tanqidiy qarash haqiqatni aniqlash uchun ularni bir-biri bilan taqqoslab ko'rish, til qurilishini, yozuvlarni o'rganish – bular hammasi o'rta asrning buyuk qomuschisi Abu Rayhon Beruniy ilmiy usulining asosini tashkil etadi. Abu Rayhon Beruniy tomonidan «Sabablarning sababi» – inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo'yilishi diqqatga sazovor. «Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir». Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo'lishi haqida aqlga asoslanish nuqtai nazarida turganini ko'ramiz. Olamning mavjudligi masalasiga kelganda, Beruniy «ehtimol u bir necha ming million yillardan beri mavjud bo'lgandir», degan taxminlarni aytadi. Beruniy fikricha, inson hayvondan aqli bilan farq qiladi.

Beruniy, Muhammad ibn Ahmad al-Biruni, musulmon olim va faylasuf bo'lib, o'rta asrlar Islom dunyosida ilm-fan va falsafaning rivojiga katta hissa qo'shgan shaxsdir. Beruniy falsafiy qarashlari ko'plab ijtimoiy, ilmiy va diniy

masalalarni qamrab oladi. U asosan tabiiy fanlar, astronomiya, geodeziya, tarikhshunoslik va matematika bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan. Falsafiy qarashlari esa uning ilmiy izlanishlari va tajribalari bilan bevosita bog'liqdir.

Beruniy o'z faoliyatida ko'plab falsafiy masalalarni ko'rib chiqqan. U ilmga va mantiqiy fikrlashga katta ahamiyat bergan. Beruniy falsafasi hamda ilmiy qarashlari orqali foydalanish mumkin bo'lgan tajribalarga asoslangan metodologiyani rivojlantirgan. Uning fikricha, haqiqiy bilim tajribalar va kuzatishlar orqali olinishi zarur. Beruniy, shuningdek, bugungi kunda ham zamonaviy ilm-fan va falsafa uchun qimmatli manba bo'lib qolmoqda.

Beruniy ishi orqali turli sohalarda, jumladan astronomiya va geodeziyada ko'plab muhim kashfiyotlar amalga oshirilgan. U koinotdagi jismlarning katorlari, ularning harakatlari, va Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi haqidagi nazariyalarni shakllantirgan. Beruniy, shuningdek, yer yuzasi o'lchovlari kabi amaliy ilmlar haqida ham juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Beruniy falsafasi iktisodiy, madaniy va axloqiy asoslarni ham o'z ichiga oladi. U insonning ma'naviy va jismoniy jihatlarini bir-biri bilan bog'lab ko'radi va hayotiy ahamiyatga ega mazkur jihatlarini uzoq muddatli rivojlantirishni ta'kidlaydi. Beruniy, shuningdek, din va fikr erkinligi o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida uning falsafiy qarashlari va dunyoqarashining asosiy tamoyillaridan biridir. Beruniy ilgari surgan g'oyalar va nazariyalar bugungi kunda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. U, ilmiy izlanishlarning ahamiyati va insoniyat taraqqiyotidagi ulkan rolini anglatadi. Uning falsafiy qarashlari orqali, biz hozirgi kunda ham shunday ilmiy yo'nalishlarni shakllantirishimiz va rivojlantirishimiz mumkin. Beruniy, o'z davrida ilmiy bilimlarni yig'uvchi sifatida tanilgan. U aslida mavjud bo'lgan qadimgi yunon va hind ilm-fanlarini o'rganib, ulardan yangi bilimlarni yaratishga harakat qildi. Bu jarayon orqali, u mutlaq bilim va haqiqatga erishishga intilgan bir boshqaruvni yaratdi.

Umuman olganda, Beruniy falsafasi nafaqat ilmiy sohalarga yaxlit etilgan, balki inson hayotining turli jabhalarida bir-biriga mos keladigan ko'plab ijtimoiy g'oyalarni ham qamrab olgan. Uning qarashlari, insoniyatning bilimga bo'lgan

intilishi va kelajakdagi ilg'or g'oyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Beruniy, falsafa va ilm-fan sohasida haqiqiy izlanishlar va kuzatishlar orqali bilim olish zarurligini ta'kidlaydi.

Beruniy fikricha, falsafa insoniy hayotning asosiy o'rnini egallaydi. U har bir insonning axloqiy va ma'naviy taraflarini birlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u ijtimoiy adolat va inson huquqlari kabi muhim masalalarni qamrab olgan. Beruniy, bilim va falsafa orqali insoniyatning ma'naviy rivojlanishiga qattiq ishonadi va bu jarayonni davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini zarur deb biladi.

Beruniy falsafiy qarashlari o'zida ko'plab g'oyalarni jamlagan. U an'anaviy fikrlash usullariga qarshi chiqib, xayolparastlikni va noaniqlikni tanqid qiladi. Bu o'z navbatida, ilmiy fikrning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Beruniy ishi orqali, u ilmiy mantiq va nazariyalarni yaratishda qatnashgan va o'z g'oyalarini hayotda qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Z Turaqulov ,S.Rahimov. «Abu Rayhon Beruniy v ta'lim tarbiya haqida» Toshkent «O'qituvchi»-1992 yil.
2. Alimov X.M., Karimova V.M., Nishanova Z.T. (2020). Etnopsixologiya va din psixologiyasi. Darslik. - T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot -matbaa uyi", 280 b.
3. Мунавваров А.К. “Педагогика”, Т., “О„қитувчи” 1996.
4. Bekmirov, T. R., Melabayeva, R. N., Axmedova, M. E., & Nurmatov, A. N. (2022). Kasbiy pedagogika.
5. Karimova, Madina Botirovna. "The ceremonies held with the participation of women and the institute of otinoyis (women teachers who run a school in their home) (in the example of Ferghana valley)." Theoretical & Applied Science 1 (2020): 341-349.
6. Каримова, Мадина Ботиржановна. "Participations of G'assols (Washers of the Dead) in Mourning Ceremonies (in the Example of Ferghana Valley)." Молодой ученый 1 (2013): 289-291.